

ANTON PAVLOVICH CHEXOVNING “GAROV” HIKOYASIDA ASAR KOMPOZITSIYASI VA BADIYYATIGA XOS XUSUSIYATLAR

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

Nartosheva Mukaddas Voxid qizi

Ilmiy rahbar: O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi assistenti

Yusupov Sardor Shodi o‘g‘li

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiyotshunoslikda hikoyachilikning o‘rni, o‘ziga xos xususiyatlari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tilgan holda Anton Pavlovich Chexovning “Garov” hikoyasi adabiy tahlilga olingan. Hikoyada kompozitsion qurilishining o‘rganilishi bilan birga badiiy jihatdan mazmun mohiyatiga ham alohida e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar. Hikoya, A.P.Chexov, garov, kompozitsion qurilish

Hikoya adabiyotimizda epik turning eng kichik janrlaridan biri hisoblanadi. Adabiyotshunos olim D.Quronov hikoyani kichik epik shakllar sirasiga kiritadi. [5:192] Unda voqea-hodisalar ixchamlikka asoslanadi. Hikoyalar tuzilish jihatidan kirish, tugun, natija kabi qismlardan iborat bo‘ladi. Bundan tashqari ularda ekspozitsiya, konflikt kabi tushunchalarni ham uchratishimiz mumkin. A. Qahhor, Sh. Xolmirzayev kabi yozuvchilarimiz bu janrda barakali ijod qilgan. Jahon adabiyotida esa A.P. Chexovning ijodini misol qilib olsak bo‘ladi. A. Qahhor Chexov asarlarini o‘rganib, tarjima qiladi. Uning faoliyatiga qiziqadi. Balki, shu jihatdan bo‘lsa kerak A. Qahhor hikoyalarida A. Chexov ijodi sezilib turadi. U Chexovning faoliyatini 3 davrga bo‘lib o‘rganadi. Aynan shu bo‘lingan davrning ikkinchisi, ya‘ni 80-yillarning o‘rtalaridan 90-yillarning boshlariga qadar bo‘lgan davrda u asosan hikoyachilik bilan shug‘ullangan. “Semiz va oriq”, “Chekovnikning o‘limi”, “Buqalamun”, “Niqob”, “Unter Prishibeyev”, “Garov”, “G‘ilof bandasi” kabi bir qator hikoyalarini yaratadi. Bu hikoyalar jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va maishiy to‘qnashuvlarga asoslanadi. Boshqa hikoyalaridan farqli o‘laroq “Garov” hikoyasi insonni bir zungagina bo‘lsa ham o‘yga solmay qolmaydi. Hikoya tuzilishida voqealar rivoji ekspozitsiyadan kulminatsiya tomon rivojlanib boradi va yechim bilan yakunlanadi. Ya‘ni voqealar oddiylikdan, kirishdan boshlanib, tugun, kulminatsiya va natija bilan tugaydi.

Bankirning uyida bo‘lin o‘tayotgan ziyofatda to‘satdan olimlar o‘rtasida bahsga sabab bo‘lgan ikki qarama-qarshi fikr, o‘lim yoki umrbod qamoq jazosi mavzusidagi tortishuv hikoyaning kirish qismi hisoblanadi. Bundan keyingi voqealar esa, ya‘ni kimdir o‘limni, kimdir umrbod qamoq jazosini ma‘qullashlari,

bankirning o'z fikrlarini bildirishi, umumiy holatda voqealar rivojini tashkil etadi. Bu holatlar, mulohazalar davom etadi, to tuguniga qadar. Tugunda asar qahramonlari o'rtasida konfliktning paydo bo'lishi yoki boshlanishi tasvirlanadi. U harakatni belgilaydi, voqealar rivojiga turtki bo'ladi, ularga aniq yo'nalish beradi. Tugun kitobxonni tasvirlanajak voqealar ichiga yetaklaydi, qahramonlar taqdiriga qiziqtiradi. U asarning turli joylarida (boshida, o'rtasida, oxirida) kelishi mumkin. N.V.Gogolning "O'lik jonlar" asarida tugun oxirida keladi. G'. G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasida esa tugun boshida uchraydi.[3:68] Ya'ni hikoyaning boshi o'g'irlik bilan boshlanadi. Qolgan voqealar esa tugundan so'ng davom etadi.

Biz o'rganayotgan "Garov" hikoyasida tugun o'rtada, advokat va bankir garov o'ynashidan boshlanadi. Garov shart va majburiyatlariga ko'ra huquqshunos 15 yil qamoqda o'tirishi, tashqi olam bilan aloqani uzishi shart qilib qo'yiladi. Lekin u xohlaganicha kitob buyurtirib o'qishga huquqi bor edi. O'rtada arzimagan 2 million mukofot edi, xolos. Nahotki, huquqshunos shu pul uchun 15 yil qamoqda o'tirsa, balki bilmay gapirib qo'yganidan afsuslanayotgandir, fikrini isbotlash uchun jahll ustida garovga rozi bo'lib yuborgandir, balki...

Xullas, shu kabi har xil o'y-xayollar bizni qiynashi mumkin. Qahramonlar taqdiri endi qanday kechishi barchamizni qiziqtiradi. Aynan shu barcha muammo va savollarga sabab bo'lgan jarayon tugundir.

Huquqshunos 15 yil davomida ko'plab kitoblarni o'qidi. U shu yillar ichida bir nechta tillarni yolg'iz o'zi o'rganib, ko'plab sohalarni o'zlashtirgani va buni uddasidan chiqqani insonni qay darajada mukammal ekanligini, ahar o'zida ishtiyoq bo'lsa, hamma narsa qo'lidan kelishi mumkinligini isbotlab berdi. Bank sohibining o'ylamay aytgan gaplari kun kelib o'zining boshiga balo bo'lgani, hatto mag'lub bo'lmaslik uchun odam o'ldirishgacha borgani achinarli holat, albatta. Hikoyada bankirda ham, huquqshunosda ham ichki konflikt mavjud. Ya'ni ularning ikkisi ham o'z ruhiy dunyosida turli fikrlar bilan to'qnash keladi, muommolar girdobida qoladi.

Garovda, umuman, hayotda yutqazishga o'rganmagan banker garov muhlatining so'nggi kechasida razil niyat bilan huquqshunos xonasiga boradi. Buni qarangki, shuncha vaqt tashqi dunyo bilan aloqani uzib, umrinig 15 yilini tor, qorong'i zindonda o'tkazgan yosh huquqshunos garov tugashiga bir kun qolganida qochib, garov qoidasini buzadi. U bankir uchun xat tashlab ketadi. Huquqshunosni ko'rishga kelgan bankir xatni ko'rib hayron qoladi. Bu jarayonni biz hikoyaning kulminatsiyasi desak ham bo'ladi. Chunki, aynan, advokatning shuncha yillik qiyinchiligi garov tugashiga bir kun qolganida qochib ketishi hikoya rivojidadagi eng yuqori natijadir. Ya'ni aqlga sig'mas darajada ajablanarli hodisa. Lekin u o'ziga kerakli narsani oldi. Buni o'zining fikrlaridan bilishimiz mumkin. "Kitoblaringiz meni donishmand qildi. Ularda men Elburs va Monblan cho'qqilariga yuksalib, u

yerdan quyosh chiqishini ko'rdim. Sizlar qalban ozib to'g'ri yo'ldan adashgan insonsizlar. Har doim yolg'onni haqiqat deb qabul qilasizlar" [1:153]

U o'tgan umridan afsuslanmaydi. Aksincha, bizni ogohlikka chaqiradi. Vaqtimizni shunchaki o'tkazayotganimizdan achinadi. Yuqoridagi fikrlarni xatda o'qigan bankir ham o'ziga yetarlicha saboq oldi.

Umuman olganda, biz o'rganib chiqqan "Garov" hikoyasi hikoya mavzusi ma'nosiga ko'ra falsafiy yo'nalishda yozilgan. Undagi voqealar asosiy liniyalar, ya'ni bankir va huquqshunos o'rtasida sodir bo'lganligi uchun ham hikoya sodda va tushunarli.

Rus adabiyotining yirik namoyondasi A.P.Chexov o'zining ko'plab hikoyalari bilan kitobxonlar ko'nglidan joy olgan. Uning nafaqat "Garov" hikoyasida, balki boshqa hikoyalarida ham o'sha davr ijtimoiy muhiti tasvirlangan. Uning ijodini qiziqib o'rgangan hikoyanavis yozuvchimiz A.Qahhor "A.P. Chexov hikoyachilikning otasidir" - deb uni ehtirom bilan ta'riflaydi. [2:3]

Shunday qilib, mazkur maqolada adabiy va badiiy tahlilga olingan "Garov" hikoyasi A.P.Chexovning ijodkorlik mahoratining yuksak darajada ekanligidan dalolat beradi. Ijodkor o'zining falsafiy fikrlarini badiiy asarni tashkil etuvchi kompozitsion unsurlar orqali hikoya ichiga singdira olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyot 11-sinf uchun darslik. B. To'xliyev, B. Karimov T-2018 153-b
2. A.Qahhor "Chexovdan o'rganaylik" 1939. www.ziyonet.uz kutubxonasi
3. I. Tashmuhamedova "Adabiyot tarixi va nazariyasi" 1-qism Toshkent 2020. 68-b
4. <https://saviya.uz>
5. D. Quronov "Adabiyotshunoslikka kirish". Tashkent. 2004. 242 b.